



BAXTU IQBOL KAFOLATI – BOSH QOMUSIM!

2

INNOVATSIYA – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

3

MAS’ULIYATLI VAZIFA SHARAF BILAN BAJARILDI

6

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam - mehnatda

Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2023-yil 28-noyabr № 11 (1533)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



BUGUNGI SONDA

“YASHIL MAKON”

Ekologik barqarorlik kafolati **4**

JARAYON

“Yong‘in xavfsizligi oyligi” davom etmoqda **5**

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni **7**

BUGUNNING GAPI

Vatan taraqqiyoti uchun barchamiz mas‘ulmiz! **8**

SO‘RAGAN EDINGIZ

Qo‘shimcha ta‘til olishim mumkinmi? **9**

SALOMATLIK

Suyak yemirilishi kasalligi nega ko‘paymoqda? **10**

SPORT

Birinchi qaldirg‘ochlarimiz – chempion **11**

IBRAT

Qadringni bil! **12**

KONSTITUTSIYA – BAXTLI HAYOTIMIZ KAFOLATI

Hurmatli metallurqlar, ishlab chiqarish faxriylari, qadrli bekobodliklar!

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan samimiy tabriklayman.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat taraqqiyotining mustahkam tayanchi va huquqiy kafolati, Vatanimiz mustaqilligining yorqin ramzidir. Mazkur asosiy Qomusimizda mamlakatimizda inson huquq va majburiyatlari belgilab berilgan, har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi, ijtimoiy muhofazasi kafolatlangan.

Konstitutsiyamizda belgilangan qadriyatlar jamiyat hayotida mustahkam qaror topib, mamlakatimizda tinchlik va totuvlikni mustahkamlashning garoviga aylandi.

Bugun yangilangan Asosiy qonun haqiqatan ham xalq Konstitutsiyasidir. Unda turli kasb va ijtimoiy mavqega ega O‘zbekiston fuqarolarining fikr va takliflari inobatga olingan. Konstitutsiyamizga ko‘ra inson, uning hayoti, huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish oliy qadriyat hisoblanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarning izchil rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi va fuqarolar, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilaydi.

Hurmatli metallurqlar, ishlab chiqarish faxriylari!

Ana shunday mustahkam huquqiy poydevor asosida

davlatimizda keng ko‘lamli demokratik islohotlar jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda. Barchamiz amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining to‘laqonli ishtirokchisimiz. Har birimizning bunyodkorlik ishlarida faol ishtirokimiz xalq farovonligi va davlatimiz qudratini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Buguni kunda “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati jamoasi eng yaxshi mehnat an‘analarini munosib davom ettirmoqda. Har birimiz zimmamizga yuklatilgan vazifalarning mas‘uliyatini to‘liq his qilamiz. Kombinatimizda zamonaviy ekologik va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaga muvofiq har birimiz mehnat qilish va munosib mehnat sharoitida ishlash huquqiga egamiz. Shundan kelib chiqib, kombinatimiz mehnatni muhofaza qilish, metallurqlar va soha faxriylarini ishonchli ijtimoiy kafolatlar bilan ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Mamlakatimiz asosiy qonuni qabul qilingan kun O‘zbekistonda umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi. Bu bayram bilan yana bir bor sizlarni chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Rashid PIRMATOV,
“O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisi –
bosh direktor.

QAYERDA QONUN HUKMRON BO'LSA, SHU YERDA ADOLAT BO'LADI

“KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI – FAROVON HAYOT GAROVI DEGAN TUSHUNCHA FUQAROLARIMIZNING ONGI VA QALBIDA CHUQUR O'RIN EGALLASHI HAMDA IJTIMOY EHTIYOJGA AYLANISHI LOZIM”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV.

INSON QADRI BOSH MEZON

Asosiy qonunimiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston “ijtimoiy davlat” degan tamoyil muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 baravarga oshdi. Yoshlar siyosati, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yuqori bosqichga ko'tarildi. Nuronilar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan insonlar, alohida e'tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirildi.

Unda O'zbekiston “huquqiy davlat” degan tamoyil ham qat'iy qilib belgilanib, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar 3 baravardan ham ko'paytirildi.

“Inson qadri uchun” tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo'lishi shartligi, insonning sha'ni va qadr-qim-

mati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Bu – avvalambor barcha sohada qonun ustuvorligi ta'minlanadi, degani. Bundan buyon, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'ladi.

Konstitutsiyamizda millatlar, konfessiyalar o'rtasida totuvlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida O'zbekistonning “dunyoviy davlat” sifatidagi maqomi ham mustahkamlandi. Mamlakatimizda millatlar, konfessiyalar o'rtasida totuvlik va xavfsizlikni ta'minlash siyosati jadal davom ettirilishi, jamiyatimizda har qanday radikallashuvga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilandi.

Konstitutsiya yangi O'zbekistonimizning bugungi hayoti va ertangi taqdiri, inson huquqlari mustahkam kafolatlanishi uchun xizmat qiladi.



XALQIMIZ TAKLIFLARI ASOSIDA YANGILANDI

Konstitutsiya – davlatning Asosiy Qonuni. Unda davlat va jamiyatning huquqiy tamoyillari aksini topadi. Konstitutsiya bu – jamiyatning umumiy huquqiy modeli bo'lib, barcha qonunchilik unga aynan mos kelishi lozim. Davlatning boshqa biror bir huquqiy aktlari Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi shart.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'n ikkinchi chaqiriq bilan respublika Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan. Shu kundan e'tiboran, O'zbekistonda 8-dekabr umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo'lsa, birinchi Konstitutsiya qabul qilinishi barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi o'rnatilgan.

O'tgan yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan Referendumda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilinib, konstitutsiyaviy qonun 2023-yilning 1-may sanasidan kuchga kirdi.

Yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasida moddalar 128 tadan 155 taga ko'payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, ya'ni Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilangani, inson huquq va erkinliklariga oid qoidalar uch yarim baravarga ko'paygani “Inson qadri uchun” tamoyillarining hayotimizdagi qonuniy kafolatidir.



BAXTIMIZ QOMUSI

Forobiylar orzu qilgan amal senda,
Beruniylar qo'ygan toshi tamal senda.
Temur bobom tuzuklari – ibtidoiy,
Mir Alisher bobom ahdi tugal senda.
O, Istiqlol sharofati – or-nomusim,
Baxtu iqbol kafolati – Bosh Qomusim!

Ko'ngillarga ziyo sochgan oftobimsan,
Ezguligu Tinchlik degan xitobimsan.
Olam aro Haqiqatni bayroq qilib,
Adolatni ko'zlaguvchi kitobimsan.
O, Istiqlol sharofati – or-nomusim,
Baxtu iqbol kafolati – Bosh Qomusim!

Boshimizda quyosh yanglig' porlayvergil,
Yangi baxtu omadlarga yo'llayvergil.
Mag'rur oshib ulug'-ulug' dovonlardan,
Bizni buyuk kelajakka chorlayvergil.
O, Istiqlol sharofati – or-nomusim,
Baxtu iqbol kafolati – Bosh Qomusim!

Zikrilla NE'MAT.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniish huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi.

O'zbekistonda insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekistonda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi.

INNOVATSIYA-TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

MAMLAKATIMIZDA INNOVATSION G'OYA VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA, FAN VA INNOVATSION FAOLIYAT JADAL RIVOJLANISHI UCHUN ZARUR SHART-SHAROITLARNI YARATISHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA. MILLIY IQTISODIYOTIMIZNI INNOVATSION USULDA TARAQQIY ETTIRISH ENG DOLZARB VAZIFAGA AYLANDI.

BELGILANGAN LOYIHALAR AMALGA OSHMOQDA

Dunyodagi zamonaviy taraqqiyot tendensiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish, ilg'or ilm-fan yutuqlarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy qilish barqaror iqtisodiy o'sishning bosh omili hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va innovatsion faoliyatga oid ko'plab normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyulidagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Farmoni hamda "2022-2026- yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish



strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-307-sonli qarori qabul qilindi. Ularni amalga oshirish uchun joriy yilda kombinatimizda umumiy qiymati 6,41 milliard so'm bo'lgan 9 ta loyiha bo'yicha Innovatsion rivojlanish strategiyasi rejalashtirilgan edi.

Aprel oyida Zoldir prokatlash stanlari vallarining chidamliligini oshirish maqsadida kreogen innovatsion texnologiyalari joriy etish bo'yicha birinchi bosqich sinov ishlari tugadi. Endilikda ikkinchi bosqich ishlari davom ettiriladi. May oyida "O'zmetkombinat" AJda 3-sonli qozonxona iste'molchilarini yozgi mavsumda issiq suv bilan ta'minlash uchun TUU Navli prokat sexining ortiqcha bug'idan samarali foydalanish innovatsion loyihasi bajarildi.

Iyun oyida bu yilga belgilangan yana to'rtta loyiha amalga oshirildi. Ularning uchasi Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexida ishlab chiqarishga joriy etildi.

Mikrokremnezyom FeSi texnologik chiqindisini qayta ishlash texnologiyasini joriy qilish orqali yangi mahsulot ishlab chiqarildi. Ferroqotishmalar ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan ko'mir chiqindisini qayta ishlash va uni ishlab chiqarishga qayta yo'naltirish yo'lga qo'yildi. Ferrosilikomarganes (FeSiMn) chang chiqindisini qayta ishlash texnologiyasini joriy qilish orqali yangi mahsulot ishlab chiqarila boshlandi.

Shuningdek, iyunda Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexida yana bir loyiha amalga oshdi. Ya'ni bazalt asosida issiqlik o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarishda ajraladigan chiqindilarni qayta ishlash orqali yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Quyosh fotoelektr mini stansiyasini qurish loyihasi ham amalga oshirildi.

Kombinatimizda yil oxirigacha Metall

konstruksiyalar sexining 13-sonli va Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexiining 3-sonli ko'priqli kranlarining elektr jihozlarini modernizatsiya qilish hamda kranni pult orqali masofadan boshqarish tizimini joriy etish hamda issiq holdagi shlaklarni qayta ishlash loyihalari bajarilish belgilangan.

ILM-FAN VA ISHLAB CHIQUARISH

Bugungi kunda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi hamda Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Umumiy va noorganik kimyo instituti, "MISiS" Milliy tadqiqot texnologik universitetining Olmaliq filiali, O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi mutaxassislari bilan hamkorlikda ushbu loyihalarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan "Sanoat chiqindilarini qayta ishlash" yo'nalishi bo'yicha issiq xoldagi shlaklarni qayta ishlash natijasida shlakdan metallni ajratish, gaz va changlarni tozalash qurilmasi tarkibida ruh (Zn) elementi mavjud bo'lgan ushlab qolinadigan changlarni qayta ishlash natijasida ruhni ajratib olish hamda qo'shimcha metallarni ajratish, mikrokremnezyom ferrosilitsiyning (FeSi) va ferrosilikomarganes (FeSiMn)ning texnologik chiqindisini qayta ishlash texnologiyasini joriy qilish orqali yangi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ishlar bajarilyapti.

SAMARALI NATIJALAR

Kombinatimizda Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti dotsenti, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Rustam Shaxobutdinovning "ShPS 40-80 sharoprokatlash stani yuritmasining nazariyasi, konstruksiyalari, sanoatda tadbirig'i" mavzusidagi

"Mexanizm va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari" ixtisosligi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Uning natijasida quyidagi ilmiy-tadqiqot ishlari joriy qilindi.

Diametri 50 mm. va 68,4 mm. maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun qo'llaniladigan olti kirimli vintli kalibrlarning ariqchalar markazi siljigan valoklarni kesish uchun profili nazariy asoslangan kulachoklar turkumini tayyorlash texnologiyasi joriy etilishi natijasida kulachoklarning hamda kesuvchi chashka va opravkalarni tayyorlash tannarxini arzonlashtiradi.

Tasdiqlangan ish rejasining 5-bandi bo'yicha yo'naltiruvchi lineykalalarni kombinat sharoitida yasash ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi kunga qadar kriogen ishlov berilgan valoklar asnosida diametri 100 mm. bo'lgan po'lat zoldirlardan 2650 tonna mahsulot ishlab chiqarildi. Ungacha doimiy vallardan 2350-2400 tonna atrofida mahsulot ishlab chiqarishga erishilardi. Olib borilgan tajriba-sinov natijalariga asosan diametri 40, 65 mm. bo'lgan po'lat zoldirlar ishlab chiqarilishi o'z o'zini qoplash hisobi ko'rsatilib "O'zmetkombinat" AJda zoldir prokatlash stanlari vallarining chidamliligini oshirish maqsadida kreogen texnologiyasini joriy etish loyihasi unumli ko'rsatkichlar beradi, degan xulosaga kelindi.

BELGILANGAN CHORALAR AMALDA

"Yuqori omli koks ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlik energiyasidan foydalanigan holda elektr energiyasini ishlab chiqarish" innovatsion loyihasini amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Energetika muammolari institutining "ENERGY AUDIT" MChJ bilan xo'jalik shartnomasi tuzilib, yuqori omli koks ishlab chiqarish uchastkasida "Koks gazining fizik kimyoviy parametrlarini aniqlash" ishlari olib borildi. Hozirgi kunda bu loyihaning ikki bosqichida belgilangan choralarni amalga oshirilmoqda.

Kombinatni innovatsion rivojlantirish borasida katta imkoniyatlarga egamiz. Zero kombinatning yanada ravnaq topishi, tayyorlanayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yoqubjon RO'ZIBOYEV,
innovatsiya va ilm-fan bo'yicha
yetakchi mutaxassis.

“KUZGI DARAXT EKISH MAVSUMI” DAVOM ETMOQDA

“YASHIL BELBOG”LAR BARPO ETILMOQDA

Bugungi kunda butun dunyoda iqlim o'zgarishi natijasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Shuning uchun ham yangi o'n yillikning asosiy yo'nalishlaridan biri bu atrof-muhitni muhofaza qilishdir.

Yurtimizda ham atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, tabiiy ekotizimlarni saqlash va tiklash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ikki yil avval noyabr oyida boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi va davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 25-oktabr dan 1-dekabrgacha “Kuzgi daraxt ekish mavsumi”ning e'lon qilinishi “yashil” yo'nalish O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

“O'zmetkombinat” AJda ham bu yo'nalishlarda keng hajmli ishlar olib borilmoqda. Yaqinda kombinat boshqaruvi raisi – bosh direktorning “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi buyrug'i qabul qilindi. Buyruqda 2023-yil “Kuzgi daraxt ekish mavsumi”da 200 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish choralari belgilab berilgan.

Unga asosan jumladan “O'zmetkombinat” AJ hududida 103000 dona, kombinatning Respublika viloyatlarida joylashgan “Ikkilamchiqorametallar” filiallari hududlarida 70000 dona manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish ishlari olib borilmoqda. Kombinatsning “Metallurg” professional futbol klubi, “Metallurg” mehmonxonasi, sanatoriy-prafilaktoriy, “Metallurg” pansionati hududlarida esa 3600 dona manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilangan.

“O'zmetkombinat” AJda ham “Kuzgi daraxt ekish mavsumi” qizg'in ketmoqda. Korxonadagi bo'sh maydonlarga tuproq olib kelinib, ko'chat ekish uchun yerlar haydalmoqda. Tayyorlangan joylarda oleandr, burama majnuntol, majnuntol, qoratal, pavlovniya, katalpa, sada, xilokatalpa, vodiy nilufari kabi ko'chatlar hamda terak, tez



o'suvchi yovvoyi uzum ko'chatlari ekilmoqda.

Marten sexi va kombinatning tutash hududlarida “Yashil makon” bog'lari tashkil etilishida faol qatnashayotgan Texnogen chiqindilarni qayta ishlash sexi uchastka ustasi, xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi deputati Davlat Xolmurodovni suhbatga tortdik.

– Butun respublikamiz bo'ylab davom etayotgan ko'chat ekish ishlarida biz ham ko'plari qatori ishtirok etmoqdamiz. Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi deputati sifatida Bekobod shahar “Birdamlik” mahallasida kombinat homiyligida obodonlashtirish ishlarida qatnashgan edim. Shundan so'ng kombinat rahbarlari topshirig'i bilan yashil bog' tashkil etish ishlariga ham jalb etilmoqdaman.

Yaqinda avvalgi Marten sexi atrofidagi yarim gektar yerda “Yashil makon” bog'ini barpo qildik. Tashlandiq bo'lgan bu yer sanoat chiqindilari tozalani, o'rniga tuproq olib kelib to'kiladi hamda tekislandi. Shu yerda mo'jazgina bog' tashkil qildik. Tashkil etilgan bog'dagi ko'chatlarning ertaga barqaror o'sishi va parvarishi doimiy nazoratga olinadi. Avtotransport va Klining xizmatlari jamoasi yordami bilan bu bog'da 2,5 ming tup daraxt ko'chatlari ekildi.

Shu atrofga yaqin joyda yana ikki gektar yerda “Yashil makon” bog'ida 25 ming tup, XIMICH va Navli prokat sexi oralig'idagi tashqaridagi yo'l bo'yidagi yerga 30 ming tup daraxt ko'chatlari o'tqaziladi. Bu joylar ham ekishga tayyorlanishi uchun keng hajmli ishlar bajarildi.

Tashlandiq joylarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishda Avtotransport xizmatining ekskavator, yuk ortish va tashish avtomobillari haydovchilari, Klining xizmati ishchilari sidqildan mehnat qildilar.

Kombinatning barcha sexlari, ijtimoiy ob'ektlari hamda “Ikkilamchiqorametallar” filiallari hududlarida ham “Kuzgi daraxt ekish mavsumi”da mana shunday dolzarb ishlar olib borilmoqda.

Ilhom ISMATOV.

EKOLOGIK BARQARORLIK KAFOLATI

So'nggi yillarda yoz oylari havoda chang miqdori ko'payib ketdi. Hatto-ki chang olib keladigan shamollarga ham guvoh bo'layapmiz. Bunda, bir qator tabiiy omillar, jumladan Orol dengizining qurishi bilan bir qatorda sanoat korxonalarining ko'payishi, avtomobillar sonining keskin oshib borishi, qurilish ob'ektlarining ortishi sabab bo'lmoqda. Natijada atmosfera havosi tarkibidagi zararli gazlar, chiqindilar miqdori me'yori-dan oshib ketayapti.

Qurilish ob'ektlari, sanoat korxonalari va transport vositalaridan chiqadigan tutunlar, turli gazlar havoning optimal tarkibini buzib, atmosfera bo'ylab sayr qiladi. Bu moddalar havo haroratining keskin oshishiga ham olib keladi.

Qurilishlarni, ishlab chiqarishni, avtomobillarni to'xtatib bo'lmaydi, ehtiyojlarimiz ham bunga yo'l bermaydi. Ammo atmosfera havosiga yetkazilayotgan zarar daraxtzorlarni ko'paytirish evaziga kamayadi. Mana shuning uchun ham mamlakatimizda “Yashil makon” loyihasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu loyihani amalga oshirish orqali havoni tabiiy ravishda toza-

laydigan daraxtlar ekilmoqda.

Tadqiqotlarga qaraganda, 1 gektar maydondagi daraxtzor bir kecha-kunduzda 220-275 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o'rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta'minlashga yetadi. Boshqacha aytganda, 4 ta daraxt bir kishining kislorodga ehtiyojini qondiradi. Shu bois, yashillikni asrash va ko'paytirish masalasi doimo e'tibordabo'lib, bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari davrida esa yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shaharlardagi haroratni pasaytirishda ham daraxtlarning ahamiyati katta. Bundan tashqari daraxtzorlar shamol tezligini uchmar-tagacha pasaytirar ekan. Bu esa, chang-to'zonlarning atrofga tarqalishining oldini oladi.

“O'zmetkombinat” AJda ham “Yashil makon” dasturi doirasida ko'plab daraxt va buta ko'chatlari ekilmoqda. Birgina hozirgi kuz faslida kombinatda ikki yuz ming dona daraxtlar ekish belgilangan.

Mutaxassislar avvalambor iqlim sharoitidan kelib chiqib kombinat

atrofiga daraxtlarni ekishni tavsiya qilishmoqda. Bundan tashqari, yashil daraxtzorlar barpo etilayotganda hududning shamol rejimi va uning xarakteri, atmosferaga tashlanayotgan chiqindilarning miqdori, yer sathidan balandligi, kimyoviy va fizikaviy tarkibini e'tiborga olish lozim.

Shox-shabbasi katta, barglari osilib turadigan (emanning barcha turlari, qayrag'och, tutlar, katalpa, qatrang'ilar, qora yong'oq, oq terak, chinor, jiyda) daraxt turlari changlarni yaxshi tutib qolish va yutish xususiyatiga ega. Ularda hatto zararli kimyoviy birikmalarni, ayniqsa, uglevorodordlarni yutish va qayta ishlash imkoniyati mavjud. Demak bunday ko'chatlarni kombinat hududlariga ekish, tez-tez chang ko'tariladigan joylarda o'stirish maqsadga muvofiq. Daraxtlar bargi-



ni to'kadigan qish mavsumida esa bu vazifani ninabarglilar bajaradi.

Shuningdek, daraxtlar o'zaro zich bo'lmasligi talab etiladi. Aks holda ularning kislorod ajratib chiqarish xususiyati susayishi kuzatiladi. Yorug'lik yetarli bo'lgandagina o'simlikda fotosintez jarayoni jadal kechadi va zararli gazlarni yaxshi yutadi, natijada ko'p kislorod ajratib chiqaradi. Shu bois ham daraxtlarni ekishda orasidagi masofa kam bo'lmasligi tavsiya qilinadi. Albat-ta bu ham daraxtning turiga, o'sish xususiyatiga qarab belgilanadi.

Diyor ZULFIQOROV.

YAXSHI NATIJALARGA ERISHILMOQDA

YAGONA LOGISTIKA MARKAZIGA QARASHLI TEMIR YO'L XIZMATIDA MEHNAT QILAYOTGAN ISHCHI VA XIZMATCHILARIMIZ SAMARALI MEHNATLARI BILAN KOMBINATIMIZ RAVNAQIGA MUNOSIB HISSA QO'SHIB KELISHMOQDA.

Jamoamiz kombinatda katta kuchni tashkil etadi. Hozirgi kunda Temir yo'l xizmatida 11 dona teplovoz, 187 tadan ortiq yuk tashish vagoni hamda 5 dona temir yo'l kranlari mavjud. Kombinat hududidagi temir yo'l izlarining uzunligi 65 km. dan ziyoddir.

Jamoamiz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ortig'i bilan bajarib, muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Temiryo'lchilarimiz kombinatga eng zarur xomashyolar, temir-tersak parchalari, asbob-uskunalarini o'z vaqtida yetkazib berishmoqda. Shu bilan birga kombinat hududidan yuklarni o'z manzillariga olib borish hamda kombinat hududida yuk tashish ishlarini bajarishyapti.

Temir yo'l xizmati jamoasi 2023-yilning o'tgan 10 oyi bo'yicha mehnatda yaxshi natijalarga erishdi. Yil boshidan buyon temiryo'lchilarimiz tomonidan kombinatimizga 1 062 730 tonna yuk olib kiritildi. Kombinatdan tashqariga 603 449 tonna yuk tashildi. Shu bilan birga kombinatning o'zida 6 668 428 tonna yuk tashildi va belgilangan 10 oylik reja 108, 2 foizga ado etildi.

Bundan tashqari Temir yo'l xizmatida yanvar-oktabr oylarida bir qator ahamiyatga molik ishlar qilindi. Jumladan, Teplovozlarni ta'mirlash uchastkasida 89 marotaba teplovoz ta'mirlanib, bu boradagi reja 111,3 foizga bajarildi.

Temir yo'l ta'mirlovchilari tomonidan kombi-

natga qarashli 43,538 km. temir yo'l izlari joriy ta'mirlandi va belgilangan reja 106, 2 foizga ado etildi. Kombinatning Metall konstruksiyalar sexi hududida 50 metr uzunlikdagi kran osti temir yo'li, Zoldir prokatlash sexida 150 metr yangi temir yo'l izlari qurib bitkazildi. 3 dona texnologik temir yo'l kesishmasi ta'mirlandi. Shirin stan-



siyasidan kombinatgacha bo'lgan temir yo'l masofasi oralig'idagi 4 dona temir yo'l kesishmasi, "Farg'ona ikkilamchiqorametal" filialida 78 metr "Toshkent shahar ikkilamchiqorametal" Sergeli usatkasida 30 metr va "Sirdaryo ikkilamchiqorametal" Bayovut uchastkasi-



da 380 metr temir yo'l hamda kran osti temir yo'llari kapital ta'mirlandi.

Vagon tozalovchilar tomonidan kombinat hududida 16 766 dona vagon tozanib, belgilangan reja 106, 2 foizga bajarildi. Temir yo'l kranlarida yuklab-tushirish xizmati tomonidan 13 070 tonna yuklash-tushirish ishlari amalga oshirilib, belgilangan reja 105 foizga ado etildi. 21 tonnadan ortiq yoqilg'i moylash mahsulotlari iqtisod qilindi.

Erishilayotgan yutuqlarda o'z vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan temiryo'lchilarimizning mehnati alohida tahsinga sazovor. Ular o'z vazifalarini namunali bajarish orqali kombinatimizda po'lat va navli prokat mahsulotlarining uzliksiz ishlab chiqarilishiga munosib ulushlarini qo'shib kelayaptilar.

Bobir ISHONQULOV,
Yagona logistika markazining
Temir yo'l xizmati boshlig'i.



HAMKORLARIMIZ E'TIROFI

Joriy yilning oktabr oyida kombinat tomonidan ilk marotaba Germaniyaning Duysburg shahriga sirlangan po'lat idishlar jo'natilgan edi. Mahsulotlarimizni qabul qilib olgan Germaniyaning "Olymp GmbH Deutschland" kompaniyasi direktori Stefan Schmalz kombinatimizga minnatdorchilik maktubi yo'lladi.

"O'zmetkombinat" AJ jamoasiga yo'llangan mazkur maktubda shunday deyiladi: "Sirlangan po'lat idishlar ishlab chiqarishda ko'rsatilgan ajoyib mehnat va kasbiy mahorat uchun Sizlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning yuqori sifatli sirlangan po'lat idishlarni ishlab chiqarayotganingiz, loyihalarimiz muvaffaqiyati uchun beqiyos ahamiyatga ega. Biz mahsulot sifati bevosita har bir ishchi-xodimning shaxsiy sa'y-harakatlariga bog'liqligini yaxshi tushunamiz.

Sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarganingiz uchun Sizlarga rahmat aytamiz. Biz uzoq muddatli hamkorlikka umid qilamiz va kombinatingiz o'z mijozlarini yuqori sifatli mahsulotlar bilan xursand qilishda davom etishiga ishonamiz".

YURTIMIZDA 15-NOYABRDA BOSHLANGAN "YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLI" 15-DEKABR KUNIGA QADAR DAVOM ETADI

EHTIYOT BO'LING - IS GAZI

Qish mavsumi yaqinlashgani sari yurtimizning turli hududlarida is gazidan zaharlanish, hattoki o'lim holatlari ko'payadi.



IS GAZI NIMA?

Is gazi rangsiz va hidsiz bo'lib, tabiiy gaz, ko'mir, o'tin va boshqa yoqilg'ining to'liq yonmasligi natijasida paydo bo'ladigan gazdir. Is gazi inson organizmining nafas yo'llari va nafas a'zolariga kuchli ta'sir qiladi. Uylarda pechni noto'g'ri yoqish natijasida is gazi to'planadi va zaharlanishga sabab bo'ladi. Is gazi nafas yo'llari orqali organizmni, xususan markaziy nerv tizimini zararlaydi.

TAHLILLAR NIMANI KO'RSATADI?

Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

- Fuqarolar tomonidan gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin va boshqa) turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmaslik;
- nostandart (qo'lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lma-

gan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanish;

- isitish pechlari-ning dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish;
- gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirish;
- havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov

(ko'mir va o'tin cho'g'lari) dan foydalanish;

- havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuy-nuklarni berkitib (to'sib) qo'yish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra isitish uchun foydalanilayotgan yoqilg'i (gaz, ko'mir, o'tin va boshqa)ni chala yonishi natijasida is gazi hosil bo'ladi.

ZAHARLANISH ALOMATLARI

Is gazidan yengil darajadagi zaharlanishda bosh qattiq og'riydi, aylanadi, quloqlar shang'illaydi, ko'ngil ayniydi, ba'zan qusish, hushdan ketish kuzatiladi.

O'rtacha darajada zaharlanishda mushaklar kuchsizlanadi, nafas siqiladi, puls tezlashadi, arterial qon bosimi pasayadi, ko'ngil ayniydi va aql xiralashadi.

Og'ir darajada zaharlanishda odam batamom hushidan ketadi.

Oyoqlari ko'karib yoki oqarib, yuzida qirmizi dog'lar paydo bo'ladi. Puls tezlashadi, arterial qon bosimi keskin pasayadi, nafas olish sekinlashadi va chuqurlashadi, mushaklar bo'shashadi, nafas to'xtaydi va odam o'ladi.

BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Avvalo, zaharlangan kishini zudlik bilan toza havoga olib chiqish zarur. Shuningdek, bemorning qo'l va oyoqlarini ko'targan holatda yotqizish, nafas olishiga xalaqit beruvchi tugmalarini yechib, yoqani ochish, kamarini bo'shatish, jabrlanuvchining uxlab qolmasligini nazorat qilish kerak.

Til orqaga ketib qolishining oldini olish uchun bemorni yonbosh bilan yotqizish, ko'krak qafasini artish, oyoq va qo'llarni isitish, novshadil spirti hidlatish tavsiya qilinadi. Bemorning holati yaxshi bo'lsa, issiq choy ichirish, kuchli zaharlanish holatlarida jabrlanuvchiga tibbiyot xodimlari kelguniga qadar og'izdan og'izga nafas, yurak yopiq mas-sajini bajarish lozim. Zaharlanib qolgan kishini shifoxonaga yuborish kerak, chunki birmuncha keyinroq o'pka va asab tizimida og'ir asoratlar vujudga kelishi mumkin.

Unutmang, is gazidan zaharlangan odamni yurgizish mumkin emas.

Javlon UMIRZOQOV,
"O'zmetkombinat" AJning
OYOXTTEB inspektori.

“O‘ZMETKOMBINAT” AJNING 80 YILLIGI OLDIDAN

MAS’ULIYATLI VAZIFA SHARAF BILAN BAJARILDI

HAYOT YO‘LI

Ta’bir joiz bo’lsa, aytish mumkinki, har bir inson, har bir mehnat jamoasining o‘z hayot yo‘li bo‘ladi. O‘zbekiston metallurgiya kombinatining ham o‘z yo‘li bor. O‘sha suronli 1943-yilda qurilish ishlari boshlanib, 1944-yilning 5-mart kuni ilk po‘lat quymasi olingan kundan boshlab bugunga qadar korxona mehnat jamoasi iqtisodni rivojlantirish, xalq turmushi farovonligini oshirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotir.

Bekobodning shahar sifatida kengayib borishi, aholi sonining oshib borishida ham korxona muhim o‘rin tutgan desak, adashmaymiz. Aksariyat metallurglar xonadonlari hisobiga shahar kengayib bordi, turar-joy binolari, madaniy-maishiy, xizmat ko‘rsatish binolari, maktab, bog‘chalar qad rostladi. Shifoxonalar, tashlandiq bo‘lib yotgan, chakalak va butazor, toshloq yerlarda xiyobonlar, istirohat bog‘lari barpo etildi. O‘tgan yillarda metallurglar ijtimoiy masalalar hal etilishida elga kamarbasta bo‘lib keldilar.

QURILISHLAR QIZG‘IN PALLADA...

O‘tgan asrning 70-yillarida Bekobod shahri-ning 11-12-dahalarida qurilish ishlari qizg‘in olib borildi. “O‘zbekmetallurgqurilish” trestining SMU-2, SU-3 qurilish boshqarmasi, O‘zbekiston qurilish vazirligiga qarashli qurilish trestlaridan binokorlar qurilish ishlariga jalb qilindi. “Xoz-yoz” kanalining o‘ng qirg‘og‘iga, 13-dahada ham keng hajmli bunyodkorlik ishlari olib borildi. “Bekobod issiqlik manbai”, shahar markaziy shifoxonasining poliklinikasi, 7,8,9-sonli maktab, 9-10 sonli bolalar bog‘chalari, ekspremental ravishda 9 qavatli uy qurildi. 1975-76-yillari bu dahalarda 19 ta inshoot qurilib birin-ketin foydalanishga topshirildi.

Bunday katta hajmdagi, keng maydonda olib borilayotgan qurilish ishlari avjida ketayotganida 1977-yil fojia yuz berdi. O‘zbekiston metallurgiya zavodi direktori Ibrohim Muhammedov (u kishi zavodga 28 yil rahbarlik qilgan) hamda shahar rahbari Botir Abbosov yo‘l-transport hodisasida halok bo‘lishdi.



ELEKTRDA PO‘LAT ERITISH BOSHLANDI

Shu voqeadan bir yildan oshiq vaqt o‘tib Elektrda po‘lat eritish sexiga (EPES) qarashli bir necha ob’ektlar ishga tushdi. 1978-yil fevralida korxonamizda birinchi elektrda eritilgan po‘lat olinib, tarix solnomasiga EPESning tug‘ilgan kuni yozib qo‘yildi.

Shu yilning avgust oyidan muntazam elektrda po‘lat eritish boshlandi. Yil oxiriga borib EPESning ikkinchi pechi va uzluksiz metall quyish qurilmasi ishga tushdi.

Har qaysi pechning loyiha quvvati 250 ming tonna po‘lat eritishga mo‘ljallangan bo‘lib, yonma-yon qurilgan uzluksiz quyish mashinalarining quvvati esa undan ham ortiqroq edi. Zavodning eski prokat sexi o‘sha paytlarda 300-320 ming tonna prokat mahsuloti tayyorlash qurbiga ega edi, xolos. Shu sabab EPESda tayyorlangan xomashyo Rossiyaning ulkan zavodlariga jo‘natilardi.

Zavodni kompleks qurish loyihasi bo‘yicha oldinda uchinchi pech, po‘latni uzluksiz quyish mashinasi hamda bir million tonnadan oshiqroq metallni tayyor mahsulotga aylantiradigan qudratli yangi prokat sexi qurilishi turar edi. Bu ikki gigant sexlarni maromida ishlatish uchun bir necha yordamchi xo‘jaliklar qurilishi olib boriladi. Ta‘mirlash-mexanika, elektr tarmoqlari, podstantsiyalar, energetika, temir-tersakni tayyorlash sexlari ishga tushirildi.

Ibrohim Muhammedov vafotidan keyin, zavodda oldin bir necha yil ishlab, oddiy po‘lat quyuvchisidan, to zavod direktorining o‘rinbosari bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan, endilikda Buxoro viloyati ijroya qo‘mitasining raisi vazifasida ishlayotgan Sharif Xayrullayev zavod direktori etib tayinlandi. 1978-yilda EPESning 1- va 2- pechlarini ishga tushirish aynan u kishining rahbarlik davriga to‘g‘ri keldi. Ammo sog‘lig‘i yomonlasha boshlagani sababli u ona yurti Buxoroga qaytib ketadi.

QURILISHNING ENG DOLZARB DAVRI

1979-yil fevral oyidan muhandis-metallurg, katta mehnat tajribasiga ega, zavod direktorining qurilish ishlari bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlayotgan Rixsivoy Yusupov korxona direktori etib tayinlandi. R. Yusupov zavodga rahbarlik qilgan yillar davlat miqyosidagi katta loyiha, zavodni kengaytirish va qayta qurish davrining eng cho‘qqisi va nihoyatda og‘ir pallalariga to‘g‘ri keldi.

EPESning 3-pechi, uzluksiz po‘lat quyish mashinasi bilan ishga tushirilib, uchchala pechdan 600 ming tonnadan oshiq metall quyilmasi olishga erishildi. EPESda birin-ketin yordamchi sex, bo‘linmalar ishga tusha boshladi. 2-navli prokat sexi qurilishi jadal suratlar bilan olib borildi.

Shu davrlarda 13-dahadagi turar-joylar bitkazilib, ishchi-xizmatchilarga berildi. 200 o‘rinli davolash majmuasi, poliklinika, bolalar bog‘chalari ishga tushirildi.

Sirdaryo sohilida joylashgan “Salamatino” dam olish maskani, Hofiz G‘aniyev nomli bolalar istirohat bog‘i ham o‘sha davrdan esdalik.

LATVIYA TAJRIBASI

Zavod tez kengaygani sababli ishchi-xodimlarning uy-joylarga bo‘lgan talabi ham keskin ko‘paydi. Uy olishga muhtoj bo‘lganlar soni mingtagacha oshib ketdi. Bu ehtiyojni qondirish uchun “O‘zbekmetallurgqurilish”ning kuchi yetmasdi.



Bunday holatda yaqin yillarda metallurglarning uylarga bo‘lgan talabini qondirib bo‘lmasdi.

Ana shu paytda zavod direktori R. Yusupovning harakatlari o‘z samarasini berdi.

– O‘sha davrda, sobiq ittifoq miqyosida direktorlar kengashi bo‘lardir. Ana shunday kengashlardan birida Latviyadagi metallurgiya zavodi direktori Nikolay Golodov o‘zaro suhbatda “Bizda uyga navbatning o‘zi yo‘q. Hamma uy bilan ta‘minlangan”, deb qoldi. Bu gapni eshitib, 1982-yil mehnat ta‘tiliga chiqib ularning tajribasini o‘rganish uchun turmush o‘rtog‘im bilan Latviyaga yo‘l oldim, – deb xotirlagan edi Rixsivoy ota o‘zaro suhbatimiz chog‘ida.

– Nikolay Nikitovich bilan uchrashganimizda (suratda) u bu boradagi olib borayotgan ishlari bilan meni tanishtirdi. Ma‘lum bo‘lishicha ular boshqa respublikalar qurilish tashkilotlarini ishga yollashar ekan. Latviyalik metallurglar quruvchilarga metall mahsulotlari berar, buning evaziga ular uy-joy qurib berisharkan. Buning uchun yuqoridan maxsus fondga metall ajratishlariga erishish talab qilinardi.

R. Yusupov Rigadan qaytishi bilan “Bosh Toshkent qurilish” tashkilotlari boshlig‘i, eski tanishi To‘lagan Nabiye yoniga kiradi. Unga Bekobodda uy-joy qurilishida hamkorlik qilish taklifi bilan kelganligini, to‘lovni to‘liq metall mahsulotlari orqali amalga oshirishini aytadi. Bu taklif unga ma‘qul keldi.

O‘sha vaqtda Toshkentda uylar qurishga mo‘ljallangan 4 ta katta kombinat bor edi. T. Nabiye shu zahoti 2-“Uy qurilish kombinati” direktorini chaqiradi. Direktor bir hafta ichida shartnoma, smetani tayyorlab Bekobodga olib keladigan bo‘ldi. Aytilgan vaqtda u har biri 54 kvartirali ikkita ko‘p qavatli uy loyiha-smetasini keltirdi. Hisob-kitoblardan so‘ng zavod direktori zarur hujjatlarni olib Moskvaga, Qora metallurgiya vazirligiga boradi. Vazir Serafim Kolpakov huzuriga kirib, unga ahvolni atroflicha tushuntiradi. Vazir tashabbusni qo‘llab-quvvatladi. Natijada har yili Bekobod shahrida ikkita ko‘p qavatli uy qurish uchun ruxsat olinadi. 1983-yildan Bekobodda yaxshi va qulay bo‘lgan panel uylarni rejaning tashqari qurila boshlanadi. Natijada metallurgiya zavodida uy-joyga navbatda turganlar soni yildan yilga kamayib bordi.

Mana shunday ishlardan tashqari zavodni kengaytirish va qayta qurish davrida metallurglar po‘lat eritish, prokat mahsulotlari ishlab chiqarish rejalarini ham muntazam bajarishdi. Deyarli yangi metallurgiya zavodini qurib, ishga tushirgan bu avlod metallurglari zimmalaridagi juda mas‘uliyatli vazifani sharafla bilan bajardilar.

Yusuf AZIZOV.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – BARCHAMIZNING VAZIFAMIZ

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohagagina emas, balki butun Jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Davlatni ich-ichi-dan yemiradigan illatlar bu korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy manfaatdorlikdir. Aynan ushbu illatlar sababli ko'plab buyuk saltanatlar va davlatlar inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Taraqqiyotning yangi boshqichiga qadam qoyayotgan O'zbekiston uchun korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakldagi ko'rinishlari amalga oshirilayotgan islohotlar shiddatini susaytirishi, ishonchsizlik ruhini shakllantirishi bilan xafli.

Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatlariga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan ilk hujjatlardan biri – "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'ldi. Umumiy olganda, so'nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan 2016-yil oktabrda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatidagi ilk saylov oldi maruzalaridayoq mahalliylik va urug'-aymoqchilik kabi illatlar barobarida O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirayotgan tahdidlar orasida aynan davlat hokimiyatini obro'sizlantirib, iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiya masalasiga barchaning e'tiborini qaratdilar.

Aynan shu davrdan boshlab Prezident rahbarligi ostida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish boshlandi va bu borada izchil qadamlar qo'yilmoqda.

2021-yil 22-aprelda O'zbekiston Respublikasining 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur qonun davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta'minnlaydi, davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar mablag'laridan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Respublikamizda izchil olib borilayotgan islohotlar, jumladan, davlat moliyasini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, byudjet mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mavjud muammoni holatlarni bartaraf etish, turli mezon va me'yorlari zamon talabiga hamohang bo'lgan davlat moliyasini tizimini yanada muvofiqlashtirish hamda takomillashtirishga qaratilgandir.

Bundan tashqari Prezidentning 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida jamiyat tomonidan bir qator amaliy ishlar amalga oshirimoqda, xususan:

- jamiyatimizning xarid jarayonlari Respublika Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish

tartibi to'g'risidagi nizom" hamda jamiyatning 2022-yilning 25-maydagi 857pr sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tashkil etilmoqda;

- jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan xaridlarning yillik va choraklik reja jadvalarini hamda import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga ko'rib chiqish uchun muntazam kiritib borilmoqda va tasdiqlangandan so'ng ushbu xarid rejalarini maxsus axborot portaliga joylashtirib borilmoqda;

- jamiyat tomonidan xaridlarni amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish to'g'risidagi e'lonlar va xaridlar natijalari to'g'risidagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirish choralari doimiy tartibda amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jumladan, jamiyat veb-sahifasida tanlov va tenderlar e'lon jadvali ma'lumoti muntazam kiritilmoqda;

- jamiyat tomonidan xarid qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, texnik topshiriqlar va tender hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun belgilangan tartibda "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga kiritish amalga oshirilmoqda;

- va boshqa davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo, biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo'lib qolsak, ertangi ishimizning yakuni biz intiqib kutayotganchalik bo'lmasligi tabiiy. Shundan kelib chiqqan holda Kombinatimiz iqtisodiyotini yanada o'stirish, kombinatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa kombinatda korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvi sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari ham aynan shu maqsadni ko'zlagani bilan juda ahamiyatli hisoblanadi.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi shunday illatlarki, ularni bir boshqarma yoki bo'linmaning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, kombinatimizning barcha ishchi-xodimlari ularga qarshi kurashib, ularning mavjud ildizlarini yo'q qilish uchun kirishilsagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiyaning har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

Sherzod TURGUNOV,
Ishlab chiqarishni ta'minlash departamenti direktori.

BOSHQALARGA SABOQ BO'LSIN!

Insonlar qaysi zamon yoki jamiyatda yashamasinlar qadim-qadimdan o'zgarlar mulkini o'g'irlash, tortib yoki aldab olishni qoralashgan. Bunday holatlar uchun albatta, jazo muqarrarligini ko'pchilik bilsa-da, o'zgarlar mulkiga ko'z olaytirish holatlari jamiyatda hamon uchrab turibdi.

"O'zmetkombinat" Ajda ham shundaylar borligi achinarlidir. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi", deganlaridek so'nggi paytlarda Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida kombinatda tashmachilik bo'yicha bir qator ma'muriy ishlar ko'rib chiqildi.

O'tgan yilning 30-aprel kunidan 5-may kuniga qadar kombinatda chilangar bo'lib ishlaydiganlar Sherali Samatkulov, Soliyor Murodov va qorovul Do'stbek Sherov (ism-shariflar o'zgartirilgan) oldindan til biriktirib, "O'zmetkombinat" Ajda tashmachilik qiladilar. Ular Yonilgi-moylash materiallari saqlanadigan hududdagi ishchilar kiyim almashtirish xonasida qurilish mahsulotlarini – umumiy bahosi 5 587 200 so'mlik Akfa rom va ehtiyot qismlarini yashirin ravishda talon-toroj qilishadi.

Korxona mulkini o'zlashtirish orqali moddiy manfaatdor bo'lishni xohlaganlar niyatlariga yetisha olmadilar. Ularning bu ishlari fosh etilib,



dovdan bu ishga yordam berishini so'raydi. Uning roziligini olgach kombinatda qorovul bo'lib ishlovchi Do'stbek Sherov bilan ham til biriktiradi.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Soliyor Murodov va Do'stbek Sherov ayblariga iqror bo'lishdi. Ular Sherali Samatkulov uyiga rom yasashi kerakligini, lekin mablag'i

sud oldida qilg'iliklari uchun javob berishlariga to'g'ri keldi.

Sud majlisida huquqbuzar Sherali Samatkulov aybiga to'liq iqror bo'ldi. U ishchilar kiyim almashtirish xonasida turgan alyumin profillar va ularning ehtiyot qismlarini olib chiqib, uyida rom yasamoqchi bo'ladi. Shu niyatda hamkasbi Soliyor Muro-

yetmayotganini aytganini, korxonada Akfa romi yasash uchun olib kelingan profillarni olib chiqishda yordam so'raganini bildirishdi. Sherali Samatkulovga rahmlari kelib yordam berishganini, mazkur o'g'irlikdan hech qanday manfaat ko'rishmaganini haqida sudda ko'rsatma berishdi.

Ko'pchilik oldida huquqbuzarlar o'z qilmishidan pushaymon bo'lishdi. Qilgan noqonuniy ishlari uchun kechirim so'rab, bu holat boshqa takrorlanmasligiga va'da berishdi.

Sud, huquqbuzarlarga jazo tayinlashda barcha holatlarni inobatga olib, ularga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-modda 1-qismida nazarda tutilgan doirada jarima solishni lozim deb topdi.

Sud qarori bilan huquqbuzarlarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima solindi.

Kombinatda tashmachilikka qo'l urgan shaxslarning kirdikorlarini boshqalarga saboq sifatida ko'rsatish, ularning qilmishlarini keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilish lozim. Bu kelgusida tashmachiliklarning oldini olishda o'zining ijobiy samarasini beradi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sudyasi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) tashkil etilganiga 20 yil to'ldi. Partiyaning 2003-yil 15-noyabr kuni bo'lib o'tgan tarixiy ta'sis s'ezdida O'zbekistonda ana shunday siyosiy partiya maydonga kirib kelganligi e'lon qilingan edi. O'tgan 20 yil ichida O'zLiDeP O'zbekistonning eng yosh partiyasidan o'z saflarida 1 million 300 mingdan ortiq a'zolari birashtiruvchi, salohiyatiga ko'ra Markaziy Osiyodagi eng yirik siyosiy kuch darajasiga etdi.

VATAN TARAQQIYOTI UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!

Partiya siyosiy sahnaga kirib kelgan ilk yillardanoq mamlakatdagi yetakchi partiyalardan biriga aylana oldi va o'tgan yillar davomida shu maqomni qo'ldan bermay kelmoqda. Buni partiyaning o'tgan yigirma yil davomida barcha saylovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etganligi yaqqol isbotlab turibdi.

O'zLiDeP "O'zmetkombinat" AJda ham boshlang'ich partiya tashkilotiga ega. Bugunga kelib kombinatimizda 400 yaqin partiya azolari bor.

Boshlang'ich partiya tashkiloti tomonidan metallurglar o'rtasida ko'plab uchrashuv va seminarlar, turli tadbirlar tashkil etildi. Partiyamiz tarkibida "Yoshlar qanoti", "Ayollar qanoti" ham o'z faoliyatini olib boradi.

Bizning boshlang'ich partiyamiz ham hozirda o'z rivojining yangi sifat bosqichida turibdi. Bu, avvalo, partiya safining kengayishi va tashkiliy jihatdan mustahkamlanishida ham yaqqol namoyon bo'lyapti. Ayni paytda "O'zbekiston 2030" strategiyasida belgi-



langan maqsad va vazifalarni hayotga tadbiriq etishga kirishdik. Mamlakatimizdagi yetakchi kuch sifatida bu maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash O'zLiDePga alohida mas'uliyat yuklaydi, deb o'ylayman.

Yanada kengroq xalq orasi-ga kirib borishimiz, yurtimizda kechayotgan har bir voqea-hodisaga, jarayonlarga o'zimizni daxldor ekanimizni his qilib yashashimiz lozim. Shundagina xalq e'tirofiga, rahmatiga sazovor bo'lamiz. Maslakdoshlarimiz bu mas'uliyat yukini his qilgan holda, zimmalaridagi vazifani sharaf bilan uddalashiga ishonaman.

Davlat XOLMURODOV,
"O'zmetkombinat" AJ
O'zLiDeP boshlang'ich
partiya tashkiloti raisi.

TARADDUD

Energetika sexiga qarashli 4 ta qozonxonada umumiy quvvati 19,2 MVt jami 9 ta qozon mavjud. Sexda qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Energetiklar tomonidan mavjud kamchiliklar o'rganilib, bartaraf etilyapti.

Jumladan, 1-sonli qozonxonaning 2 dona "Harakat 2000 G" rusumli suv isitish qozonlari mukammal ta'mirlandi. 2-,3- va 4-sonli qozonxonalarning 7 dona "Harakat 2000 G", "VGL-2,3 G", "KV-2.3 G" rusumli suv isitish qozonlari ham joriy ta'mirdan chiqarildi.

Shuningdek, barcha qozonxonalarda 8 dona issiqlik almashinuvchi qurilmalar tozalanib, joriy ta'mirlandi. Kombinatt issiqlik tarmoqlarining 1520 metr yaroqsiz quvurlari yangisiga almashtirildi, 3680 metr issiqlik tarmoqlari joriy ta'mirlandi.

Bundan tashqari ushbu issiqlik quvurlarining issiqlik yo'qotishlarini bartaraf etish maqsadida 3044 metr quvurlar issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar va zanglamaydigan tunukalar bilan qoplandi.

Shu bilan bir qatorda kombinatning asosiy issiqlik quvurlari va tarkibiy bo'linmalarining mavjud isitish tizimlarining germetik holati tekshirilib, suvli tozalash ishlari jadallik bilan bajarilmoqda. Qish mavsumini betalofat o'tkazish borasidagi bu kabi dolzarb ishlar davom ettiriladi.

Sheroz SHUKURALIYEV.

KASABA UYUSHMALARI HAYOTIDAN

O'ZARO TAJRIBA ALMASHISH – TARAQQIYOT GAROVI

"O'zmetkombinat" AJ Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi faoliyatida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va kelgusidagi rejalar bilan tanishish hamda tajriba almashish maqsadida kombinatga Rossiya Federatsiyasining Kon-metallurgiya sanoati xodimlari Kasaba uyushmalari federatsiyasi vakillari tashrif buyurishdi.

Federatsiya vitse-prezidenti Andrey Shvedov, Rossiya konmetallurgiya kasaba uyushmasi Chelyabinsk viloyati qo'mitasi raisi Yuriy Goranov, Magnitogorsk metallurgiya kombinatining boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi Boris Semyonov va Chelyabinsk turboproskat zavodi boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi Mixail Grizodublar kombinatimizda bo'lishdi.

Tashrifni o'zaro muzokaralardan boshlagan mehmonlar kombinat tarixi muzeyida bo'lishib, kombinatning qurilishi, hozirgi faoliyati va ishlab chiqarish texnologiyasi aks etgan ko'rgazmalar bilan tanishdilar.

Rossiya Federatsiyasining Kon-metallurgiya sanoati xodimlari Kasaba uyushmalari federatsiyasi vakillari kombinatning "Metallurg" shahar shifoxonasi faoliyati bilan ham tanishishdi. Shifoxona bosh shifokori Zarema Strigina mehmonlar-

ga shifoxonada ishchi-xodimlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, qulayliklar va zamonaviy xizmat ko'rsatish usullari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Shifoxona faoliyati bilan yaqindan tanishgan mehmonlarning keyingi manzili Metallurglar madaniyat saroyi bo'ldi. Tantanavor ravishda kutib olingan federatsiya vakillariga madaniyat saroyi badiiy havaskorlik jamoalari tomonidan konsert dasturi namoyish etildi.



"QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR"

"O'zmetkombinat aksiyadorlik jamiyati yoshlari ishtirokida sexlar o'rtasida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovining birinchi yarim finali o'tkazildi.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini keng turda targ'ib etish maqsadida tanlovda 5 ta jamoa ishtirok etib o'z chiqishlari bilan barcha tomoshabinlarni xushnud etishdi.



Jamoalar ko'rik-tanlov Nizomiga muvofiq uchta shart bo'yicha o'zaro bellashishdi va shart mezonlari asosida hakamlar hay'ati tomonidan baholalanib borildi. Ular o'zlarining qiziqarli va mazmunli chiqishlari bilan ishtirok etib, bilim, mahorat, ijodiy salohiyatlarini bel-



gilangan talab me'yorlariga rioya etgani holda ko'rsatib berdilar.

Tanlov yakunida umumiy yig'ilgan ballar natijasiga ko'ra 1-o'rinni Yagona logistika xizmatining "Transportchilar", 2-o'rinni Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexining "Zamonaviy kulollar" hamda 3-o'rinni Ovqatlanish kombinatining "Mohir oshpazlar" jamoalari egallashib, final bosqichga yo'l olishdi.

Shuningdek, bu uchchala jamoa Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan bir martalik pul mukofotlari – birinchi o'rinni olgan jamoa 7 million so'm, ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan jamoalar 5 va 3 million so'm bilan taqdirlanishdi.

O'QUV-SEMINAR TASHKIL ETILDI

Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Ustoz va shogird" an'anasiga asosan kasaba qo'mita raislari uchun o'quv-seminar mashg'uloti o'tkazildi.

Faoliyati namunali yo'lga qo'yilgan Elektrda po'lat eritish sexida tashkil etilgan tadbirda mazkur sexning kasaba qo'mitasi raisi Ma'ruf Allamuratov o'quv-seminar qatnashchilari bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashdi. U boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi vazifalari, shu jumladan sex qo'mitasiga kelib tushadigan murojaatlarni o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish, xodim-

larga qulay va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tushunchalar berib o'tdi.


Tadbir davomida ishtirokchilar mavzu yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. Shu bilan birga kasaba qo'mitasi raisi sifatida ish boshlagan yoshlarga malakali sex kasaba qo'mita raislarining ish faoliyatlarini o'rgatish va ularga bu borada doimiy ko'makdosh bo'lish hamda sex kasaba qo'mitalari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida har oyda bir marotaba shunday o'quv seminarlar o'tkazilishiga kelishib olindi.

QO'SHIMCHA TA'TIL Olishim MUMKINMI?

Ishdan ajralmagan holda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish qilmoqchiman. Bu ishlarimni olib borishda qo'shimcha ta'til olishim mumkinmi?
Z. Sultonov.

Mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga asosiy ish joyida o'rtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda ijodiy ta'tillar beriladi. Bu haqda Mehnat Kodeksining 387-moddasida belgilangan.

Shunga ko'ra falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasini olishga



doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar qo'lyozmalarining mualliflariga – uch oygacha; fan doktori (Doctor of Science (DSc)

ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun – olti oygacha, mualliflar jamoalari tomonidan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarini yozish chog'ida mualliflar jamoasi a'zolaridan biriga mualliflar guruhining barcha a'zolari imzolagan yozma arizaga muvofiq ijodiy ta'til beriladi. Mualliflar ta'tilni o'zaro taqsimlashga ham haqli.

Ilmiy daraja olishga da'vogarlariga, shuningdek darsliklarning yoki o'quv-uslubiy qo'llanmalarining mualliflariga navbatdagi yillik mehnat ta'tillari ular ijodiy ta'tillardan foydalanganligidan qat'iy nazar beriladi.

DAM Olishning DAVOMIYLIGI QANCHA?

Smenali ish ishlab chiqarishda dam olishning davomiyligi qancha bo'lishi kerak?

Sh. Ne'matov.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasiga ko'ra ikki va undan ortiq smenadagi ish smenali ish deb hisoblanadi. Smenali ish ishlab chiqarish jarayonining (ishning) davomiyligi har kungi ishning belgilangan davomiyligidan oshadigan hollarda, shuningdek asbob-uskunalaridan yanada samarali foydalanish, ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmini oshirish maqsadida joriy etiladi.

Smenali ishda ish vaqti rejimi smenalarga bo'linib ishlash jadvali bilan belgilanadi. Xodimlar

smenalar bo'yicha bir maromda navbat almashadi.

Xodimni surunkasiga ikki smena davomida ishga jalb etish taqiqlanadi. Smenalar orasidagi har kungi dam olishning eng kam davomiyligi (bitta smena oxiridan to keyingi smena boshlanishiga qadar) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus vaqti bilan birga kamida o'n ikki soatni tashkil etishi kerak.



BOSHQA MUDDATGA KO'CHIRSA BO'LADIMI?

Har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki uni boshqa muddatga ko'chirishga qanday hollarda ruxsat beriladi?

K. Azizov.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga asosan xodimlar quyidagi hollarda har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida;
- homiladorlik va tug'ish ta'tilining muddati boshlanganda;
- har yilgi mehnat ta'tili o'quv ta'tiliga to'g'ri kelib qolganda;
- davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarayotganda, agar qonunchilikda bunday majburiyatlarni bajarish uchun ishdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa;
- jamoa kelishuvlarida yoki jamoa shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Agar har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanishga monelik qiluvchi sabablar ta'til boshlanguniga qadar kelib chiqqan bo'lsa, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan ta'tildan foydalanishning yangi muddati belgilanadi. Bunday sabablar ta'til davrida



kelib chiqqan hollarda ta'til tegishli kunlar soniga uzaytiriladi yoki xodim bilan ish beruvchining kelishuviga ko'ra ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi boshqa muddatga ko'chiriladi.

Xodim har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanishga to'sqinlik qiladigan, yuzaga kelgan sabablar to'g'risida ish beruvchini yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Agar xodim Mehnat Kodeksining 228-moddasida nazarda tutilgan muddatda ta'til boshlanadigan vaqt haqida o'z vaqtida xabardor qilinmagan yoki unga ta'til boshlanguniga qadar ushbu Kodeksning 233-moddasiga muvofiq ta'til vaqti uchun haq to'lanmagan bo'lsa, har yilgi mehnat ta'tili xodimning arizasiga ko'ra boshqa muddatga ko'chiriladi.

BAYROQQA HURMAT KO'RSATISH SHART

Davlat bayrog'idan qanday holatlarda foydalanish mumkin emas?

S. Solijonov.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun bilan bayroqqa nisbatan hurmatsizlik qilish holatlari aniq belgilandi. Xususan bayroqdan va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi oqargan holda va boshqa nomaqbul tarzda hamda biror-bir narsa uchun ustki yoping'ich sifatida foydalanish mumkin emas.

Shuningdek, stollarga, o'ringdiqlarga, stullarga to'shash yoki tasvirlash, undan qoplama sifatida foydalanish, o'tiriladigan boshqa joylarga yoki oyoq ostiga to'shash yoki tasvirlash, kiyim-kechak, dastro'mol yoki ko'rpa-to'shak sifatida, buyumlarni saqlash va tashish-



da foydalanish ta'qiqlanadi. Bayroq tasviri tushirilgan belgilarni poyabzal, dastro'mol, ko'rpa-to'shak, ichki kiyim-kechakga, sochiqlarga, qutilarga (o'rovlarga), bir marta foydalanish va tashlab yuborish uchun mo'ljallangan buyumlarga bosib chiqarish yoki uning tasvirini boshqacha tarzda tushirish, bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan odob-ahloq qoidalariga va jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid ravishda foydalanish mumkin emas.

XOTINIM KASAL, UNGA QARASH UCHUN NIMA QILISH KERAK?

Xotinim kasal. Farzandlarim ishda, o'qishda. Unga qarash uchun men ishga chiqmay tursam bo'ladimi?

R. Shokirov.

Kasallangan oila a'zosini parvarishlash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) olish mumkin.

"Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 9-bandiga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda ham beriladi.

Nizomning 16-bandiga ko'ra uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga



qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

O'n to'rt yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Nizomning 26-bandiga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga to'lanadi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

SUYAK YEMIRILISHI KASALLIGI NEGA KO'PAYMOQDA?

Suyak bo'g'imlari yemirilishi kasalligi suyak to'qimasida qon oqimi vaqtincha yoki doimiy buzilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu kasallik tromboz, tromboemboliya, gormon vositalari, bo'g'imlar shikastlanishi, spirtli ichimliklar asorati sifatida shakllanishi mumkin.

XAVF KATTA

COVID-19ni boshdan kechirgan ba'zi bemorlarda bu kasallikka chalinish xavfi katta. Bu – dunyo olimlarining ilmiy xulosasi.

Agar statistik tahlillarga murojaat qilsak, pandemiya davrida ayrim bemorlar belgilangan dori vositalaridan o'zboshimchalik bilan foydalanishi, ayniqsa, gormon preparatlarining palapartish qo'llanishi ularda suyak yemirilishi paydo bo'lishiga olib keldi.

Pandemiya davrida ayrim bemorlar belgilangan dori vositalaridan o'zboshimchalik bilan foydalanishi, ayniqsa, gormon preparatlarining palapartish qo'llanishi ularda suyak yemirilishi paydo bo'lishiga olib keldi. Chunki bu preparatlar D vitamini va kalsiyning suyakka yetib borishiga to'sqinlik qiladi. Qolaversa, son suyagi boshchasini oziqlantiruvchi tomirlardan o'tayotgan qon quyuqlashishi bu bo'g'imning normal oziqlanishiga to'sqinlik qiladi.

KASALLIKNING NISHONASI



Suyak yemirilishi yoki mo'rtlashishi asosan 45-50 yoshdan so'ng kuzatiladigan kasallik bo'lib, tibbiyot tilida osteoporoz deb yuritiladi. U tana og'irligini ushlab turuvchi bo'g'imlarni zararlaydi. Kasallik uzoq vaqt yashirin kechishi mumkin. Faqat ba'zi-ba'zida bemorning beli simillab og'riydi. Osteoporoz, ayniqsa, son, yelka oldi suyaklari va umurtqalarni zararlaydi. Inson umurtqaning bel va dumg'aza qismida, kurak orasida og'irlik hissi, mushaklarda og'riq sezadi. Ayniqsa, tos suyagi va tizza bo'g'imlari aziyat chekadi. Insonning harakatlanishi cheklanadi.

Bundan tashqari, bukchayib yurish, tomir tortishishi, tez charchash, parodontoz (milk kasalligi), behollik, yurakning tez urishi, tishlarda karies paydo bo'lishi, tirnoqlarning sinuvchan-

ligi, sochlarning erta oqarishi ham kasallikning belgilariga kiradi.

Bu kasallik to'rt bosqichda rivojlanadi va shunga ko'ra og'riqlar vaqt o'tishi bilan kuchayadi.

ASOSIY SABABCHISI

Suyak yemirilishi zamonaviy insonlar kasalligi hisoblanadi. Jismoniy harakat qanchalik kam bo'lsa, suyaklar ham shunchalik zaiflasha boradi.

Zarur vitaminlarning yetishmasligi – kalsiyning so'rilishiga to'sqinlik qiladigan oshqozon-ichak kasalliklari, buyrak va jigar yetishmovchiligi, nasliy moyillik kasallikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, zararli odatlar (spirtli ichimlik ichish va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish), kasbiy kasalliklar (kun davomida o'tirib ishlaydigan kasb sohiblari), endokrin kasalliklari (qandli diabet, buqoq) suyak yemirilishining asosiy sababchilari qatoriga kiradi.

OLDINI OLISH

Avvalo, inson o'zini, yaqinlarini shikastlanishdan ehtiyotlashi kerak. Sog'lom turmush tarzi yuritish, zararli odatlardan uzoq bo'lish, ayniqsa, spirtli ichimliklar va chekishni cheklash zarur. Surunkali kasalliklarni o'z vaqtida davolash va yaxshi hazm bo'ladigan, kaloriyali va vitaminlarga boy ovqatlar iste'mol qilish salomatlikning muhim omilidir.

Yuqori xavf guruhidagilar qonni suyultiruvchi, qon tomirlarni kengaytiruvchi va qonda lipid miqdorini kamaytiruvchi dorilarni qabul qilishi kerak. Shuningdek, suyak yemirilishining oldini olish maqsadida shifokorlar kortikosteroid (gormon) dorilarni eng kam dozada qisqa muddatga ishlatishadi.

MUOLAJALAR

Aseptik nekrozda konservativ muolajalar kasallikning erta bosqichida samara berishi kuzatilgan.

Garchi hozircha son suyagi boshchasi arteriyasida qon aylanishini tiklovchi yagona preparat yo'q bo'lsa-da, kompleks davo choralari suyak yemirilishi jarayonini to'xtatishi mumkin.

Bu esa jarrohlik amaliyotini ortga surishi va



hatto operatsiyasiz ham sog'lom hayotga qaytish imkonini beradi.

Kasallikning dastlabki bosqichlarida konservativ muolajalar amalga oshiriladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- qon aylanishini yaxshilash, a'zo yoki to'qimaning qonga yolchimasligiga va yalig'lanishga qarshi kurashish;

- mikrotromblarning shakllanishiga yo'l qo'ymaslik, qonning mustahkamligini me'yorlashtirish uchun dori vositalaridan, qon-tomir tizimiga mo'ljallangan preparatlar, vitaminlardan foydalanish;

- og'riqni yo'qotish uchun dorilardan foydalanish, periartikulyar blokada – og'riq belgilarini bartaraf etish, yumshoq to'qimalarga dori-darmonlarni kiritish orqali uning harakatchanligini tiklash usulini qo'llash;

- fizioterapiya (ultratovush, magnit terapiya, zararlangan hududda dori-darmonlar bilan elektroforez), maxsus mashqlar va bo'g'imlar zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik;

- ko'proq toza havoda piyoda sayr qilish.

Odatda, suyak yemirilishi 50 foiz bemorlarda bir vaqtning o'zida ikki oyoqda ham uchraydi. Ammo tegishli davo muolajalari qo'llanilmasa, bir oyoqda kuzatilgan nekroz bora-bora ikkinchi oyoqdagi son suyagi boshchasining ham yemirilishiga olib keladi.

Xastalikning so'nggi bosqichlarida esa endoprotezlash muolaja usuliga murojaat qilinadi.

Hozir Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya markazida eng ilg'or usullar asosida shunday yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari o'tkazilmoqda.

SUYAKLAR UCHUN FOYDALI TABIIY MAHSULOTLAR



SUT MAHSULOTLARI KALSIYGA BOY

Suyaklar mustahkamligini ta'minlash uchun organizm har kuni 1,2-1,5 gr. kalsiyga muhtojlik sezadi. Bu ehtiyojni qondirishning eng yaxshi yo'li sut mahsulotlarini iste'mol qilishdir.

BIOFLAVANOIDLAR

Biriktiruvchi to'qimalarning mustahkamlanishi uchun ratsionga bio-

flavanoidlarga boy mahsulotlarni kiritish kerak. Chernika, piyoz, karam va olcha shular jumlasidan. Shuningdek, o'rik, kakao va boshqa kollagenga boy mahsulotlar ham tavsiya etiladi.

SUYAK QAYNATIB TAYYORLANGAN SHO'RVA



Suyak qaynatib tayyorlangan sho'rva eng yaxshi kollagen, ya'ni muhim oqsil manbalaridan biri sanaladi. Bunday taomda kollagen-dan tashqari, suyaklar yallig'lanish jarayonini yaxshilaydigan foydali moddalar mavjud.

RUX MODDASIGA BOY MODDALAR

Rux biriktiruvchi to'qimalar tashkil topishida ishtirok etgani sabab ham suyaklar va uning salomatligi uchun ayni muddao hisoblanadi. Mol go'shti va qovoq urug'lari rux moddasining manbayi hisoblanadi.

MIS MODDASINI ICHIGA OLADIGAN MODDALAR

Mis kollagen hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Avokado, kakao, pista va kunjutda ushbu modda mo'l

bo'ladi. Ularning iste'molini me'yori-dan oshrib yubormaslik kerak.

SULFATGA BOY SABZAVOTLAR

Brokkoli, gulkaram, sarimsoq va piyoz sulfatni o'z ichiga oladi. Bu moddalar tog'aylarni mustahkamlab, ularning bitishini yaxshilaydi.





BIRINCHI QALDIRG'OCHLARIMIZ – CHEMPION

Mamlakat U19 chempionatida oxirgi – 24-tur uchrashuvida “Metallurg” jamoasi so'nggi o'yinni “Andijon” jamoasidan tengqurlariga qarshi o'tkazib, yirik – 7:1 hisobida g'alaba qozondi. Jamoamizning asosiy raqiblari – “Nasaf” va “Mash'al” qarshidagi to'qnashuvda durang o'ynab, “Metallurg U19” ga chempionlik eshiklarini ochib berishdi. Bugun mavsum davomida Shuhrat Yo'ldoshev boshchiligidagi “Metallurg U19” jamoasi chempionlik yo'lidagi og'ishmay harakat qildi va maqsadga erishdi. Ikki yil muqaddam “Metallurg” futbol klubi qoshida ochilgan “El Golazo” futbol akademiyasining birinchi qaldirg'ochlari shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarilishdi.

Bevosita o'yin tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsak, uchra-

shuv maydon egalarining to'liq ustunligi ostida o'tdi. Birinchi taymning o'zidayoq “Metallurg” yoshlari raqib darvozasiga javobsiz uchta gol kiritishib, o'yin taqdirini hal etib qo'yishdi. Biroq tanaffusda murabbiylar futbolchilarimizga aslo bo'shashmaslikni, so'nggi soniyalargacha kurashish lozimligini uqtirishdi. Ikkinchi bo'limda maydonga qaytgan bekobodlik yoshlar bosimni yanada oshirishdi va mavsumdagi eng yirik g'alabasini rasmiylashtirishdi – 7:1.

E'tiborga molik jihati, mazkur uchrashuv Bekobod futbol faxri, “Gennadiy Krasniskiy klubi” a'zosi, ayni paytda U21 jamoamiz murabbiylar shtabida faoliyat yuritayotgan Zohid Abdullayevning farzandi – Behruz Abdullayevning benefi-

siga aylanib ketdi. U 54 daqiqa oralig'ida “poker”ni rasmiylashtirdi. Bugungi bahsda shuningdek, Ali Rixsiboyev, Ruslan Mangold va Ravshanbek Abdumannonovlar muvaffaqiyat qozonishganini qayd etish lozim. Bir so'z bilan aytganda butun jamoa yakdillik ko'rsatdi. Orziqib kutilgan g'alabaga maydonga tushgan va zahirada qolgan o'yinchilarimizning barchasi birdek ulush qo'shishdi, deyish mumkin.

OMAD KULIB BOQDI

25 ta jamoa ishtirok etgan U19 chempionatida “Metallurg” yoshlari 24 ta uchrashuvning 18 tasida g'alaba qozonishdi. 2 ta o'yinda durang qayd etishdi. 4 ta uchrashuvda imkoniyatni boy berishdi. Raqiblar darvozasiga 70 ta gol kiritgan holda o'z darvozalaridan 35 ta to'p olib chiqishdi. 56 ochko jamg'argan bekobodliklar eng yaqin ta'qibchilari – “Nasaf” hamda “Mash'al” akademiyasi tarbiyalanuvchilari bir ochkoga ortda qoldirishga muvaffaq bo'lishdi.

Ligada eng ko'p g'alabani qayd etgan Toshkent viloyati vakillariga omad ham kulib boqqanligini qayd etish lozim. So'nggi turda faqat g'alaba ishtiyoqida to'p surgan hamda o'zaro uchrashuvdagi durang bois chempionlikka erisha olmagan Qashqadaryo viloyatining ikki kuchli jamoasi – “Nasaf” hamda “Mash'al” yoshlar jamoalarining g'ayrat shijoatiga tan berish lozim. “Metallurg” esa aynan mana shu murosasiz raqobatdan unumli foydalanib ketdi.

G'OLIBLAR SHARAFLANDI

“Metallurg U19” jamoasini sharaflash marosimida dastavval akademiya tarbiyalanuvchilari tomonidan tayyorlangan badiiy qism yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Shundan so'ng Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, “Metallurg” PFK bosh murabbiyi Vesko Steshevich, O'zPFL musobaqalar o'tkazish bo'limi boshlig'i Sardor Qudratullayev, “Metallurg” PFK bosh direktori Shavkat Saidovlar “Metallurg U19” jamoasini O'zbekiston chempionatidagi muvaffaqiyat bilan qutlashdi. “Metallurg U19” jamoasi futbolchilari hamda murabbiylariga chempionatning oltin medallari, diplomlar, O'zbekiston U19 chempionati Kubogi hamda klub tomonidan ta'sis etilgan esdalik sovg'alari, pul mukofotlari topshirildi.

“Metallurg U19” jamoasi bosh murabbiyi Shuhrat Yo'ldoshev murabbiylar shtabi hamda futbolchilar nomidan yig'ilganlarga, klub rahbariyati, O'zPFL vakillari, ta'sisчилariga va mehmonlarga katta e'tibor va qutlovlar uchun samimiy minnatdorchilik bildirdi.



COCA-COLA SUPERLIGA COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA* COCA-COLA SUPERLIGA*

“NASAF” USTUN KELDI

Mamlakat milliy chempionatining so'nggi ikki turi “Metallurg” uchun omadsiz kechdi. Jamoamiz ikki marta mag'lubiyat alamini totib ko'rdi.

Avvaliga 23-turda Qarshida

“Nasaf”ga qarshi o'yin o'tkazgan “Metallurg” maydon egalariga munosib qarshilik ko'rsata olmadi. Har ikkala taymda mehmonlar darvozasiga bittadan to'p kiritgan mezbonlar ishonarli g'alabani rasmiylashtirishdi.

Uchrashuv bekobodliklar uchun o'ta omadsiz boshlandi. Husniddin G'ofurov hamda Iskandar Shayqulovlarning diskvalifikatsiya bois maydonga tusha olmagan yetmagandek, “Metallurg”ning ilk hujumidayoq jamoamiz sardori Zabixillo O'rinboyev kutilmaganda oyog'ini qayirib oldi va tomoshabinga “aylandi”. Tarkib borasida muammolar girdobida qolgan “Metallurg” murabbiylari ilk daqiqadanoq majburiy o'zgarishni amalga oshirdi. Zahiradan o'yinga qo'shilgan Damir



Temirov maydonda katta hajmdagi ishni amalga oshirishga intildi. Biroq uning ayni paytdagi jismoniy holati afsuski jamoa sardorining darajasida emasligi bilinib qoldi. Katta ustunlik va

tashabbusga ega bo'lgan mezbonlar esa 35-daqiqaga kelganda hisobni ochishga muvaffaq bo'lishdi. Oybek Bozorovning olis burchakka yo'llagan to'pini darvozabonimiz qaytarishga ojiz qoldi – 1:0.

Tanaffusdan keyin mezbonlar bosimni yanada kuchaytirishdi. Bu esa o'yin yakunlanishiga yigirma daqiqa qolganda ikkinchi to'pning kiritilishiga olib keldi. Oybek Bozorovning chap qanotdan uzatib bergan to'pini Suhrob Nurulloyev darvoza to'riga joylab qo'ydi – 2:0. “Nasaf” shu kuni yirik hisobda g'alaba qozonishi ham mumkin edi. Biroq “Metallurg” posboni Akmal Ortikov hakam tomonidan qo'shib berilgan kompensatsiya vaqtida penaltini qaytarishga erishdi.

24-turda “Surxon” jamoasini qabul qilgan “Metallurg” raqibga kichik hisobda imkoniyatni boy berdi. Bekobodliklarning g'alabasiz o'yinlari seriyasi to'rttaga yetdi: ikkita durang, ikkita mag'lubiyat...

YANA MAG'LUBIYAT...

“Metallurg” bahsni hujumkor tarzda boshladi. Ilk daqiqalardanoq to'p nazorati hamda maydon markazini qo'lga olgan hamshaharlarimiz birinchi bo'limda hisobni ochish uchun bir qator vaziyatlarni yaratishdi. Ammo hal qiluvchi so'nggi zarbada futbolchilarimizga samaradorlik yetishmadi. Aksariyat holatlarda esa “Surxon” posboni Artem Potapov ishonchli o'yin ko'rsatdi. Ayniqsa, Shahzodbek Ubaydullayevning taym o'rtalarida bergan ikkita juda xavfli zarbasida darvozabon jamoasini muqarrar gollardan saqlab qoldi.

Ikkinchi taymda ham o'yin ssenariysi o'zgarmadi. “Metallurg” hujum qildi, “Surxon” qarshi hujumda payt poyladi. Termizliklar 55-daqiqada g'alaba to'pini kiritishdi 0:1.

* * *

25-turda “Metallurg” Toshkentda “Bunyodkor”ga 1:0 hisobida imkoniyatni boy berdi.



*IBRATLI HIKOYA*IBRATLI HIKOYA* IBRATLI HIKOYA*

QADRINGNI BIL!

Ota o'limidan oldin farzandini chaqirib, qo'liga bir soat tutqazdi.

- Bu soat 200 yil oldin yasalgan. Bizga bobongning bobolaridan meros qolgan. Sen buni mahalla boshidagi soatsozga olib borib, sotmoqchi ekaningni ayt va uning javobini menga keltir, - dedi. O'g'il borib, soatsozdan:

- Buning eski ekan, besh dollar beraman, degan javobni olib keldi.

- Endi buni antikvar-noyob narsalar sotiladigan do'konga olib borgan, - dedi ota.

U yerga borgan o'g'il do'kondorning "besh ming dollar beraman" degan javobi bilan qaytdi. Ota yana



o'g'lini yubora turib:

- Endi buni davlat muzeyiga olib borib, sotmoqchi ekaningni ayt, - dedi. Muzeysga borib, otasi yoniga juda hayratlangan holda qaytgan o'g'il:

- Muzeysdagilar bir mutaxassisni chaqirtirib, uni yaxshilab tekshirganlaridan so'ng shu bir parchagina temirni bir million

dollar deb baholashdi-ya, - dedi.

Shunda ota:

- Bolam, senga o'rgatmoqchi bo'lganim, sening joying qadringni to'g'ri bilishadigan joyda. O'zingni noto'g'ri yerga qo'yib, qadringga yetmasalar, xafa bo'lib yurma. Qadringni bilgan qadringga ham yetadi. O'zingga noliyiq bo'lgan yerda hargiz qolma! - deya nasihat qildi.

MUZLATKICHDAGI AYOL...

Go'sht fabrikasida ishlaydigan bir ayol ish tugagandan so'ng muzlatkichlarni tekshirish uchun kirganda eshik bexosdan yopilib ayol muzlatkichning ichida qolib ketdi. Ayol ovozi boricha baqirib yordam so'radi. Muzlatkich eshigini tepdi, yig'ladi, ammo hech kim eshitib yordamga kelmadi.

Ish vaqti tugagani uchun hamma ishchilar uylariga ketib bo'lishgan edi. Oradan bir ikki soat o'tgandan keyin muzlatkich eshigini eshik yonida turadigan qorovul ochdi. Ayol hayron bo'lib qorovuldan so'radi:

- Siz mening muzlatkichga qa-



malib qolganimni qaerdan bildingiz? Axir, sex ichini tekshirish sizning vazifangizga kirmaydi-ku?

- Men o'ttiz besh yildan beri shu yerda ishlayman. Bu yerga qanchasi kelib ketadi, lekin birortasi eshik tagida turib ularni kelib-ketishini kuzatishimni sezishmaydi. Go'yoki men yo'qdek odamman ularga. Ammo, siz har kuni ertalab men bilan salomlashib, kechki mahal xayrlashib ketasiz. Birgina sizning shu ko'ngil uchun hol-ahvol so'raganingiz uchun men o'zimning inson ekanimni his qilaman. Ertalab salom berib ishga kirib ketdingiz, ammo ish tugagandan so'ng sizni xayrlashib chiqib ketishingizni ko'rmaganim uchun ichkarida biror narsa bo'lgandir, deb xabar olib kirgandim - dedi.

QISQA VA TA'SIRLI
HIKOYALAR

ENG KATTA YUTUQ

Ko'p yillar yuqori lavozimlarda ishlagan, keyinchalik zo'r tadbirkor bo'lgan buvamdin hayoti davomida erishgan eng katta yutug'i nima ekanligini so'radim. U buvimga qarab, uning qo'lidan ushlab dedi: "U bilan birgalikda qariganim".



MEHNATKASH

Domla darsda:

- Ustoz, ishlarimni bir ko'ring.

- Vaqtimni olma, hammasi xato. Bu juda murakkab masala. Seni bunga ilming yetmaydi. Bir qishloqi bo'sang...

Domla minbarda:

Mening bu yigitga ko'-o'p mehnatim singgan. Uning bunday darajaga yetishi oson bo'lmadi.

Bizning shogird-da - deb "qishloqi" yigitning yelkasiga qoqdi.

Yigit esa domla unga qachon yordam berganini eslay olmasdi.



QORIN OCHSA...

Biz-ku qornimiz ochsa, ovqatlanish vaqti kelganini bilamiz. Shunday odamlar borki, qorni ochadi, lekin qachon ovqat yeya olishni bilmaydi. "Alhamdu-lillah" deylik!

BILIMINGIZNI SINANG!

Bir bolaning ismini va millatini o'ngiga yoki teskarisiga o'qisangiz ham bir xil va 5 ta harfdan iborat. U bir joydan suv ichibdi, so'ng ov qilibdi. Suv ichgan joyi ham, ov qilgan hayvonning nomi ham o'ngiga yoki teskarisiga o'qilsa 5 harfdan iborat bo'lib bir xil ekan.

Bolaning ismi, millatini, qaerdan suv ichganni va qanday hayvonni ovlaganini bilasizmi?

Ignaning ko'zichalik teshikdan bir kecha kunduzda qancha suv oqadi?

Dunyoda umuman qanotlari bo'lmagan yagona qush bor. Uni bilasizmi?

Yapon tilida oylarning nomi yo'q. Ular oylarni qanday nomlashadi?

Telefon kashfiyotchisi Aleksandr Bell nega onasi va xotiniga biron marta

ham qo'ng'iroq qilmagan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Alyumin kastryullar yaraqlab turishi uchun yuvish jarayonida suvga bir necha tomchi novshadil spirti aralashtiriladi.

Eyfel minorasiga yiliga 7 000 000 sayyoh tashrif buyuradi!

Andorrada aeroport ham, vokzal ham yo'q. Unga Fransiya yoki Ispaniya orqali avtobus yoki mashinada boriladi.

Yoshlik va kuch-quvvat.

Tuzli suvga botirilgan nam doka bilan arting.

Idishga solingan tuz ta'mirdan keyingi bo'yoq hidini ketkazadi.

XANDALAR

- Dada "mujik" nima degani?
- "Mujik" degani - o'zi ishlab, pul topib, oilasini boqadigan inson!
- Dada, katta bo'lsam men ham oyimga o'xshab mujik bo'laman!

Yigit qizning yoniga kelib debdi:
- Yaxshi qiz, kimsiz, qarliksiz?
- Go'zal pariman! Oydan tushdim... - deb yigitga qaragan ekan, yigit:
- Yuzingiz bilan yomon tushibsiz-a...

- Bir talaba yigit avtobusdan tushish paytida, haydovchiga qarab, amaki meni pulim yo'q edi, - desa.

Haydovchi yigitni orqasi bir tepib tushurib yuboribdi.

Bola haydovchiga qarab:
- Amaki yana bir teping, - debdi.
Haydovchi yana bir tepibdi.
Bola avtobus ichiga qarab:
- Guli sangayam to'ladim tushaver, - dermish.

- Dadasi, yana ichdingizmi!?
- Yo'q!
- Unda "avtomexanizatsiyalashtirilmayotganliklaringdandir-da" dengchi?
- Ichdim xotin, ichdim.

- Nimaga Hindistonda oila mustahkam bo'ldi?

- Chunki to'y kuni, kuyovga miltiq sovg'a qilinadi, kelinning peshonasiga esa qizil nuqta chiziladi.

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg
inbari

MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining
Metallurglar madaniyat saroyida
joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota"
hududi "Mash'al" mahallasi,
"Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3. ISSN 2181-
645X
Gazeta "O'zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2015-yil 6-mayda 03-006 raqam bilan ro'yxatga olingan.